



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-107-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Xalq deputatlari tuman Kengashining Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisining hisoboti to'g'risida

Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisining xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining deputatlik faoliyati to'g'risidagi hisobotini tinglab, bu masala mazkur komissyaning yig'ilishida muhokama qilinganligini e'tiborga olib hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashi Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi O.Mamashukurovning tuman Kengashi deputatlarining deputatlik faoliyati to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida muntazam qatnashish;
- o'z saylovchilari bilan sayyor uchrashuvlar o'tkazish, aniqlangan muammo va kamchiliklar yuzasidan kamchiliklarga yo'l qo'ygan korxona va tashkilot rahbarlariga deputatlik so'rovlarini yuborish;
- xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan chiqarilgan qarorlar ijrosini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- har bir deputat ommaviy axborot vositalarida hamda mahalliy

gazetalarda faoliyati to‘g‘risida chiqishlar qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman Kengashi kotibiyati (G.Norboyev)ga:

- Ma’lum bir hududda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat tomonidan amalga oshirishi rejalarashtirilayotgan ishlar, chora-tadbirlar bo‘lsa, avvalroq o‘sha okrug deputatiga ma’lumot sifatida yetkazilishi;

- deputatlik so‘rovlarini qonun talablari asosida ko‘rib chiqilishini ta’minlamayotgan, aholi noroziligiga, xalq deputatlari tuman Kengashiga kelib tushayotgan murojaatlar soni ortishiga sabab bo‘layotgan rahbar va mas’ul xodimlarning faoliyatini tanqidiy o‘rganish hamda ta’sirchan chora ko‘rish vazifasi yuklatish;

- qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yayotgan rahbar va mas’ul xodimlarga nisbatan qonuniy chora ko‘rinishini ta’minalash hamda ushbu tashkilot rahbarlarining xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida hisoboti eshitilishi belgilansin.

4. Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati (G.Norboyev) va Kengashning doimiy komissiyalari raislariga:

- sessiyalarda doimiy komissiyalar hisobotlarini eshitishni an’anaviy tarzda yo‘lga qo‘yish;

- doimiy komissiyalarning ish rejalarini va samaradorligini doimiy tahlil qilib borish;

- mahalliy Kengash deputatlari faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida imtiyoz va vakolatlardan samarali foydalanish;

- mahalliy Kengash deputatlar asosiy ish joyidan vaqt ajratib aniq deputatlik faoliyatiga oid ishlar bilan shug‘ullanishlari uchun bir kunni Deputatlik kuni deb belgilash va ma’lumot uchun deputat ishlaydigan korxona, tashkilot va muassasalarga taqdim etish;

- mahalliy Kengash deputatlarining o‘zaro tajriba almashishi uchun tuman miqyosida Deputatlar klubini tashkil etish, har chorakda o‘zaro tajriba almashish, seminar treninglar tashkil etish bo‘yicha yo‘l xaritasini tuzish va huquqiy hujjat asosida tasdiqlash vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Norqulov, tuman hokimligi moliya bo‘limi (D.Mirzayev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (G.Norboyev)larga:

- “Mahallabay” ishlash tizimi samaradorligini oshirish uchun mahalliy Kengash deputatlariga hududiy muammolarini mustaqil hal etish huquqi va buning uchun ma’lum bir mablag‘ ajratishni kshrib chiqish va mahalla muammolarining yechimi uchun hokim yordamchilarini ham jalb etish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Mamashukurov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (G.Norboyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X